

Buxoro viloyatida

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025- yil yanvar - iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Buxoro viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025 - yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 17 486,4 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 17 311,9 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 106,0 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 68,5 mlrd so'mni tashkil qildi.

Buxoro viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025 - yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor (2 216,7 mlrd so'm), Buxoro (2 040,1 mlrd so'm), G'ijduvon (1 878,3 mlrd so'm), Qorako'l (1 877,9 mlrd so'm), Peshku (1 590,0 mlrd so'm) va Romitan (1 542,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.



Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (72,2 mlrd so'm), Buxoro shahar (247,7 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumani (484,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Buxoro viloyati	17 486,4	103,9
Buxoro shahar.	247,7	123,3
Kogon shahar	72,2	101,7
Olot tumani	1 421,4	104,9
Buxoro tumani	2 040,1	103,6
Vobkent tumani	1 480,7	103,1
G'ijduvon tumani	1 878,3	101,3
Kogon tumani	1 164,8	103,5
Qorako'l tumani	1 877,9	103,5
Qorovulbozor tumani	484,0	105,0
Peshku tumani	1 590,0	102,1
Romitan tumani	1 542,7	107,0
Jondor tumani	2 216,7	105,0
Shofirkon tumani	1 469,9	102,6

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (123,3 %), Romitan (107,0 %), Qorovulbozor (105,0 %), Jondor (105,0 %) va Olot (104,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan G'ijduvon (101,3 %), Kogon shahar (101,7 %), Peshku (102,1 %), Shofirkon (102,6 %) va Vobkent (103,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025 - yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 17 142,5 mlrd so'mni yoki 2024 yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 5 662,6 mlrd so'mni (105,0 %), chorvachilik mahsulotlari 11 479,9 mlrd so'mni (103,3 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jondor (2 175,6 mlrd so'm), Buxoro (2 011,5 mlrd so'm), Qorako'l (1 844,5 mlrd so'm) va Peshku (1 553,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (67,0 mlrd so'm), Buxoro shahar (241,7 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumanini (461,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (122,5 %), Romitan (106,9 %), Jondor (105,0 %) va Qorovulbozor (105,0 %) tumanlarida qayd etildi. G'ijduvon (101,3 %), Peshku (102,2 %) tumanlarida va Kogon shahar (102,3 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 77,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 18,1 % i fermer xo'jaliklariga, 4,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Qorako'l (1 344,4 mlrd so'm), Jondor (1 330,0 mlrd so'm), Buxoro (1 306,8 mlrd so'm), G'ijduvon (1 240,2 mlrd so'm) va Olot (1 026,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (64,6 mlrd so'm), Buxoro shahar (149,9 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumanini (211,6 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (118,8 %), Romitan (105,1 %), Olot (104,7 %), Qorovulbozor (104,7 %) tumanlarida qayd etildi. G'ijduvon (100,5 %), Buxoro (101,9 %), Peshku (102,2 %) tumanlarida va Kogon shaharda (102,3 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 139,8 ming tonna go'sht, 503,9 ming tonna sut, 249,9 mln dona tuxum, 2 571 tonna qirqib olingan jun, 415,6 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 2,4 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, sog'ib olingan sut – 103,4 % ni, olingan tuxum – 105,3 % ni, qirqib olingan jun – 102,6 % ni, olingan qorako'l teri – 100,6 % ni hamda ovlangan baliqlar – 100,1 % ni tashkil qildi.

2025 - yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 6,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 6,9 % i fermer xo'jaliklari, 91,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025 - yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-iyun 2025 y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	139,8	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	9,3	109,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	122,6	102,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,9	113,4
Sut, ming tonna	503,9	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	34,5	107,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	463,0	102,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,4	134,9
Tuxum, mln. dona	249,9	105,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	50,6	107,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	129,0	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	70,3	113,2
Jun, tonna	2 571	102,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	362,0	100,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 050,0	102,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	159,0	112,0
Qorako'l teri, ming dona	415,6	100,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	48,9	100,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	341,8	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	24,9	100,5
Baliq, tonna	2 374,4	100,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	826,4	98,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	177,9	106,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 370,1	100,0



Shu bilan birga, olingan tuxumning 20,3 % i fermer xo'jaliklariga, 51,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 28,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 14,1 % i fermer xo'jaliklari, 79,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 6,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 11,8 % i fermer xo'jaliklariga, 82,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 34,8 % i fermer xo'jaliklariga, 7,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 57,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Buxoro viloyati	139 770	503 881,0	249 898,0
Buxoro shahar.	2 215,5	3 459,5	2 974,4
Kogon shahar	1 457,4	272,1	613,8
Olot tumani	12 414,1	44 621,2	15 183,2
Buxoro tumani	16 030,7	59 388,7	22 889,2
Vobkent tumani	10 951,8	48 747,5	15 062,0
G'ijduvon tumani	14 390,0	58 347,8	23 052,7
Kogon tumani	11 336,2	27 478,3	43 909,0
Qorako'l tumani	16 229,8	58 753,5	22 968,1
Qorovulbozor tumani	3 018,1	7 198,2	4 856,0
Peshku tumani	11 861,4	48 239,6	11 576,7
Romitan tumani	12 053,6	45 224,7	12 192,9
Jondor tumani	16 444,4	53 289,3	60 045,1
Shofirkon tumani	11 367,0	48 860,6	14 574,9



Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jondor (845,5 mlrd so'm), Buxoro (704,7 mlrd so'm), G'ijduvon (594,7 mlrd so'm), Peshku (556,9 mlrd so'm) va Romitan (521,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (2,4 mlrd so'm), Buxoro shahar (91,8 mlrd so'm) va Kogon tumani (286,7 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (128,0 %), Romitan (109,8 %), Jondor (107,7 %), Buxoro (106,5 %) va Olot (105,3 %) tumanlarida qayd etildi. Kogon (101,2 %), Kogon shahar (102,2 %), Peshku (102,2 %) va Shofirkon (102,4 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 464,2 ming tonna don, 190,8 ming tonna kartoshka, 291,4 tonna sabzavot, 24,7 tonna poliz, 146,7 tonna meva rezavorlar va 6,7 ming tonna uzum yetishtirilgan.

Hisobot davrida yetishtirilgan don hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni, kartoshka – 103,5 % ni, jami sabzavotlar – 103,2 % ni, oziqbob poliz – 104,7 % ni, meva va rezavorlar – 107,8 % ni hamda uzum – 105,0 % ni tashkil qildi.

2025 - yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan donning umumiy hajmidan 80,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 10,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda yetishtirilgan kartoshkaning 13,1 % i fermer xo'jaliklari, 84,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, yetishtirilgan sabzavotlarning 11,1 % i fermer xo'jaliklariga, 85,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, yetishtirilgan polizning 63,2 % i fermer xo'jaliklari, 36,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, yetishtirilgan meva va rezavorlarning 42,2 % i fermer xo'jaliklariga, 56,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, yetishtirilgan uzumning 46,6 % i fermer xo'jaliklariga, 52,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.



**2025 - yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy
turdagi dehqonchilik mahsulotlari**

	Yanvar-iyun 2025 y.	O'sish sur'ati % da
Jami don, ming tonna	464,2	104,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	375,4	104,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	47,7	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	41,1	113,1
Kartoshka, ming tonna	190,8	103,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	24,9	105,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	161,6	102,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,3	142,1
Sabzavotlar jami, ming tonna	291,4	103,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	32,3	105,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	247,8	102,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,3	109,8
Poliz, ming tonna	24,7	104,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	15,6	104,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	8,9	103,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,2	149,1
Meva va rezavorlar, ming tonna	146,7	107,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	61,9	115,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	82,5	102,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,3	125,0
Uzum, tonna	6 719,0	105,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3 133,0	107,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3 525,0	101,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	61,0	3,2.m



**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi**

	<i>Jami don, tonna</i>	<i>Sabzavotlar, tonna</i>	<i>Meva va rezavorlar, tonna</i>
Buxoro viloyati	464 217,0	291 365,0	146 716,0
Buxoro shahar.	2 899,1	9 666,0	1 301,4
Kogon shahar	-	277,3	15,0
Olot tumani	40 475,6	14 972,1	5 597,5
Buxoro tumani	35 151,3	38 301,3	23 004,6
Vobkent tumani	47 581,5	21 786,6	15 784,3
G'ijduvon tumani	37 458,9	44 822,7	13 490,5
Kogon tumani	25 540,3	17 459,6	3 812,0
Qorako'l tumani	42 191,5	31 095,1	10 609,9
Qorovulbozor tumani	39 436,9	9 371,6	1 623,0
Peshku tumani	40 139,0	24 085,0	18 977,2
Romitan tumani	44 961,6	24 214,2	12 527,4
Jondor tumani	68 413,6	34 273,4	26 378,9
Shofirkon tumani	39 967,7	21 040,1	13 594,3



**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi**

	<i>Kartoshka, tonna</i>	<i>Poliz, tonna</i>	<i>Uzum, tonna</i>
Buxoro viloyati	190 825,0	24 742,0	6 719,0
Buxoro shahar.	1 355,6	207,4	4,5
Kogon shahar	163,0	-	-
Olot tumani	14 971,4	2 895,2	177,7
Buxoro tumani	32 099,6	1 364,9	1 157,9
Vobkent tumani	14 115,8	590,2	208,7
G'ijduvon tumani	16 466,2	1 427,0	272,9
Kogon tumani	12 678,4	225,7	116,2
Qorako'l tumani	15 171,4	1 896,3	126,2
Qorovulbozor tumani	937,5	4 267,0	45,5
Peshku tumani	21 767,3	3 006,4	819,3
Romitan tumani	20 508,4	491,0	349,5
Jondor tumani	27 716,1	7 453,8	2 422,7
Shofirkon tumani	12 874,3	917,1	1 017,5



IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025 - yilning 1- iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 375,3 ming boshga yetdi, (2024- yilning 1- iyul holatiga nisbatan 2,5 % ga ko'p), sigirlar 443,8 ming boshga (2,3 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 503,2 ming boshga (2,7 % ga ko'p), parrandalar 8 129,8 ming boshga (5,4 % ga ko'p) yetdi.

2025 - yilning 1- iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 375,3	102,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	118,5	105,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 229,7	101,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	27,1	119,4
shundan sigirlar	443,8	102,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	41,4	106,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	393,8	101,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,6	145,8
Qo'y va echkilar	2 503,2	102,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	444,5	104,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 849,0	101,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	209,7	108,4
Otlar	8,4	105,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4,1	105,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2,7	97,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,6	125,5
Parrandalar	8 129,8	105,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 939,4	104,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 935,4	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 255,0	111,2



2025 - yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,3 % i fermer xo'jaliklariga, 88,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 17,8 % i fermer xo'jaliklariga, 73,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 23,9 % i fermer xo'jaliklariga, 36,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 40,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025 - yilning 1- iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni, (ming bosh)**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Buxoro viloyati	1 375,3	2 503,2	8 129,8
Buxoro shahar.	6,8	18,9	209,0
Kogon shahar	1,3	3,4	67,0
Olot tumani	121,8	236,9	269,9
Buxoro tumani	130,0	165,8	1 010,6
Vobkent tumani	118,4	112,4	488,1
G'ijduvon tumani	164,6	321,7	1 096,3
Kogon tumani	94,2	98,2	964,7
Qorako'l tumani	154,4	293,3	435,1
Qorovulbozor tumani	23,6	169,5	249,0
Peshku tumani	133,0	274,7	250,5
Romitan tumani	135,6	212,6	635,4
Jondor tumani	139,6	377,0	2 091,8
Shofirkon tumani	152,0	218,9	362,4

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Sh. Shodiyev
65 223-44-45 (81-10)

